



# IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

## 21-OKTABR - O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

*Yer yuzi bepoyon, uning barcha nuqtalarini idrok qilish uchun hali inson ongi ojizlik qiladi. Bu bepoyonlikning har bir nuqtasida turli xalqlar va elatlari, millatlar yashaydi. Ularning o'z tarixi, urf-odati, qadriyati kabi bobomeros boyliklari bor. Ana o'sha bobomeros boyliklarini asrlar osha avloddan-avlodga yetkazib beruvchi o'z ona tillari mavjud. Bu til ular uchun eng qadrli va hech qachon unutilmas darajadagi nodir va muqaddas merosdir. Chunki bu til ularning milliyligiga daxldor bo'lgan barcha narsalar joy olgan.*

## TIL — NODIR VA MUQADDAS MEROS

Shuning uchun olimlarimiz so'zning ham ruhi bo'ladi, deb bejiz ta'kidlamaganlar. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, tilga hurmat — elga hurmat kabi hikmatli so'zlar shunchaki aytilmagan ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu tillar o'zlarining rang-barangligi, o'ziga xos mazmundorligi bilan o'z muxlislarini sehrlaydi. Shundan bo'lsa kerakki, "So'zda sehr bor", degan hikmat bejizga aytilmagandir deysan, beixtiyor.

Shuning uchun ham insonga tabiat ato qilgan noyob va nodir, mislsiz betakror hamda muqaddas ne'mat bo'lgan til qanchalik qadimiy bo'lganidek, tilga odamzodning munosabati ham shunchalik ko'hnadir. Tarixning xilma-xil silsilasi pog'onalarida tilni qadrlash, baholash, ona tilini muqaddas deb bilish hissi odamlar qalbini, ularning mehr daryosini hech ham tark etmagan. Shu sababli ko'pgina donishmandlar tilni insonning qalbiga qiyoslagan. Bizning qadimiy ajdodlarimiz o'z ona tilini — o'z nomus orini, odamiylik vijdonini, elu yurtini himoya qilgandek asragan, kerak bo'lsa ko'kragini qalqon qilgan. Ular ona tilini yo'qotish, tildan judo bo'lish — bu til sohiblari bo'lmish urug' va qabilaning, elat va xalqning, millatning tanazzuli, bu bilan ularning barham topishi deb bishishgan. Shu sababli bu nozik hisni, milliy tuyg'uni istilochilar, bosqinchilar yaxshi sezishgan va har doim o'zlaristi qilgan o'lkalar aholisi tilini siquvga olgan, uning rivojlanishiga yo'l bermaslik uchun iskanjada ushlab turishga intilishgan.

Shu kabi o'tgan davrlar mobaynida bizning yurtimiz, tilimiz dushmanlari ham xalqimizni til madaniyatidan uzoqlashtirishga qanchalik harakat qilmasin, lekin ona tilimiz jamiyatning eng kichik panohgohi — oilalar og'ushida, olimlar, ijodkorlarning asarlarida yashab, boyib boravergan. O'zbek tili o'zbek millati uchun qadimiy o'tmish ajdodlarimizdan ulug' tuhfa, muqaddas madaniy mulkdir. Bu lisoniy, madaniy-ma'naviy, etnomadaniyat, etnomentalitet, xalqimizning o'tmishi va tarixi, ko'hna falsafiy-diniy qarashlari, o'ziga xos ruhiy dunyosi, estetik didi va axloqiy me'yorlarini, olamni anglash, baholash va bilishga oid tushunchalarini

o'zida ifoda etgan tilni qadrlash, uni teran his qila olish g'oyat muhimdir. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, keltirilgan tushuncha o'z tarixiy ildizlari, o'zbek mentaliteti, o'zini anglashning boy an'analari asosida rivojlanishi va boyish yo'liga o'tdi. Bu o'zbek xalqi Mustaqillik tufayli erishgan ulug' boylik, imkoniyatdir. Mustaqillik arafasida o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomining berilgani, o'zbek alifbosi va imlo qoidalarining yangilangani, joy nomlarini tartibga solish bo'yicha qonun qabul qilingani, o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida taraqqiy etish yo'liga o'tgani va til madaniyati yo'lida olib borilgan boshqa amaliy ishlar buning yorqin dalilidir. O'tgan yillar mobaynida o'zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, davlat tili rivojiga bag'ishlangan konferensiylar hamda qator loyihalar misolida yorqin ko'rinish turibdi. Bu esa tilning ko'pqirrali va murakkab aloqaviy va kommunikativ vazifa sifatida ijtimoiy hayot, kundalik turmush, madaniy, etnomadaniy sharoitlarda o'z o'mi bor ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli ham til ijtimoiy sohalardagi o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bu haqdagi bilimlar bugungi kunda respublikamizning har bir ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'z tinglovchilariga yetkazib borilmoqda.

Unutmasligimiz kerakki, adabiy til milliy tilning yashash shakllaridan biridir. Adabiy til o'z vazifasi, o'ziga xos normasi, tarqalish doirasiga ko'ra tilning boshqa ijtimoiy ko'rinishlari — yashash shakllaridan farq qiladi.

Chunonchi, o'zbek adabiy tili o'zbek dialekt va shevalaridan, oddiy so'zlashuv nutqi, professional nutq ko'rinishlaridan va jargonlardan farqlidir. Adabiy tilga xos eng muhim xususiyat bu tilning umumxalq doirasida ishlatalish uchun mo'ljalanganidir.

**Bu xususiyat har qanday adabiy til uchun xosdir. Adabiy tilning o'ziga xos belgi va xususiyatlari quyidagilar:**

1. Adabiy til umumxalq tili, umumxalqiy tildir.
2. Adabiy til ko'p vazifali tildir.
3. Adabiy til — umummajburiy tildir.
4. Adabiy til — muayyan normalarga solingan, qoidalar ostiga olingan tildir.

*Erkin VOHIDOV,  
O'zbekiston xalq shoiri*

### ONA TILIM O'L MAYDI

*Notiq dedi:  
"Taqdir shul,  
Bu jahoni yroda.  
Tillar yo'qolur butkul,  
Bir til qolur dunyoda".*

*"Ey voiz, pastga tushgin,  
Bu gap chiqdi qayerdan!"  
Navoiy bilan Pushkin  
Turib keldi qabrdan.*

*Kim darg'azab,  
Kim hayron,  
Chiqib keldilar qator:  
Dante, Shiller va Bayron,  
Firdavsiy, Balzak, Tagor.*

*"Va'zingni qo'y, birodar,  
Sen aytganing bo'lmaydi".  
Barcha dedi barobar:  
"Ona tilim o'lmaydi".*

*— Hey, bu qanday aqida! —  
Qo'lida tabarruk jom,  
Go'zal forsiy haqida  
Ruboyi aytdi Xayyom.*

*Ehtirosli, otashdil  
Beranje so'rди nolon:  
— Nahotki, farangi til  
Yo'qolgsi bir zamon!*

*5. Adabiy til — keng darajada uslubiy tarmoqlangan tildir.*

*6. Adabiy til — ham yozma, ham og'zaki shakllarga ega tildir.*

*7. Adabiy til — umumxalq tilining, ya'ni milliy tilning oliy shaklidir.*

Demak, adabiy til — umumxalqiy til. Adabiy tilning bu xususiyati bu til bajaruvchi vazifalar, u xizmat qiluvchi doiraning umumxalq xarakteriga egaligi bilan izohlanadi. Adabiy tilning umumxalqona xususiyati aslida tilning xalqchil va demokratik asoslariga tayanadi. Butun ta'lim-tarbiya ishlari, barcha ommaviy axborotlar, ilmiy-madaniy xabarlar o'zbek adabiy tilida olib boriladi. Ilmiy-adabiy anjumanlar, ilmiy chiqishlar, yig'ilishlar o'zbek adabiy tilida o'tkaziladi, hatto kishilar kundalik turmushda o'zaro adabiy tilda gaplashishga intiladilar. Ayniqsa, bu rasmiy doiralardagi nutqlarda, muomalada yorqin ko'rindi. Mana shunday omillar tufayli o'zbek adabiy tili o'zbek xalqi turmushiga, uning ilmiy, madaniy, kundalik hayoti doirasiga faol kirib borgan va keng qo'llaniladi.

*Bu o'zbek adabiy tilining endilikda umumxalq mulkiga, o'zbek xalqining umumiyo aloqa quroliga aylanganini ko'rsatadi. Bu o'zbek adabiy tilining umumxalqiylik xususiyatidir. Adabiy tilning umumxalqiyligi bu tilning mohiyati, vazifasi va shakllanish xususiyatlarda ham namoyon*

*Neruda, Lorka turdi  
Servantesning yoniga:  
— Kim qasd etib tig' urdi  
Ona tilim joniga!*

*Fuzuliy yondi:  
— Ozar  
Tili guldek so'lmaydi.  
Barcha dedi barobar:  
"Ona tilim o'lmaydi".*

*Kamalakdek rango-rang  
Bo'lsin deb san'at, tillar,  
Asrlarcha qildik jang,  
Armon qildik ming yillar.*

*Beqadr bo'lsa, nahot,  
Tillardagi tarovat!  
Yo'qoldi bu kun, hayhot,  
Qabrarda halovat!*

*"Faust" yondi gurillab,  
"Xamsa" o'tga tutashdi.  
Bir sado jahon bo'ylab  
Taraldi, tog'lar oshdi.*

*Bu sado yangrар hamon,  
Sira ado bo'lmaydi.  
Olam aytar:  
Hech qachon  
Ona tilim o'lmaydi!*

*bo'ladi.*

Adabiy tilning umumxalqiyligi — bu tilning butun xalq uchun yagona qurol ekani va umumxalq mulki ekanlidigidir. O'zbek adabiy tilining umumxalqiyligi uning butun o'zbek xalqi uchun yagona aloqa quroli sifatida xizmat qilishidir.

O'zbek tilining hech bir lahjasi, shevasi adabiy til o'taydigan mana shu vazifani o'tay olmaydi. Chunki ular muayyan hudud, mintaqal aholi uchungina xizmat qiladi. Adabiy til ma'lum hudud bilan chegaralanmaydi. Shu ma'noda o'zbek adabiy tili nafaqat O'zbekiston Respublikasi doirasida yashovchi o'zbeklarning, balki boshqa xorijiy davlatlarda yashaydigan o'zbeklarning ham umumaloqa qurolidir.

Demak, til — bu xalqning ulug' karvon yo'li. Bu yo'ldan xalqning tarixi, ya'ni milliy urf-odatlari, qadriyatlari, an'analari, rasm-rusumlari, ilm-fani, madaniyati, ma'naviyat va ma'rifati kabi boyliklari avloddan-avlodga meros sifatida o'tib boradi. O'zbek xalqining bugungi san'ati va madaniyatining bu darajada boy va serqirraligi ham til bois xalqimiz ardog'ida qadrlanib kelinmoqda.

*O'tkir ISLOMOV,  
Ilmiy-tadqiqot bo'limi boshlig'i  
Jo'rabet TO'YCHIYEV,  
Ilmiy-tadqiqot bo'limi muhandisi*

Юртимизда малакали педагог кадрларни тайёрлаш ва танлаши, уларнинг фаолияти нуфузини янада ошириши, таълим соҳасида инновацион гоялар, замонавий педагогик технологиялардан кенг фойдаланиши, қолаверса, асрий устоз-шоғирд анъанаси тамоилишининг самарали натижаларини кўзлаган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарорига асосан ҳар йили республика миқёсида “Олий таълим муассасасининг энг яхши педагоги” танлови ўтказиб келинмоқда. Бу йилги танловда Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Фольклор ва этнография” кафедраси мудири, филология фанлари номзоди, доцент Ойгул Аҳмедова “Энг яхши педагог-тадқиқотчиси” номинацияси галиби деб топилди.



## БИЛИМ ВА ИЗЛАНИШЛАР САМАРАСИ

Ойгул Аҳмедова ўз фаолияти давомида институтда мағистратура бўлими бошлиги, “Халқ изходиёти ва анъанавий кўшикчилик” кафедраси катта ўқитувчisi, доцент в.б. ҳамда 2016 йилда янги ташкил этилган “Фольклор ва этнография” кафедраси мудири лавозимларида ишлаган. Педагог бу давргача ЎзМУ журналистика факультетининг бакалавриати (1995-1999) ва магистратурасини (1999-2001) ҳамда ЎзР ФА Тил ва адабёт институтининг аспирантурасини (2001-2004) тамомлаган. Номзодлик диссертацияси – “Ўзбек фольклорининг оммавий ахборот воситаларида ёритилиши ва талқини тамоиллари” мавзусини олий таълимнинг бакалавриат, мағистратура, аспирантура босқичларида, сўнгра илмий фаолияти давомида изчиллик билан тадқиқ этди. Шу жараёнда фольклор ҳамда журналистика назарияларини киёсий ўрганиб, муайян илмий хуносаларга келганилиги, параллель равишда педагогик фаолиятни олиб борганилиги Ойгул Аҳмедовада ўзига хос тажриба ҳосил қилди. Бунинг натижаси ўлароқ, ёш тадқиқотчida халқ донолигининг ҳаётӣ ва эстетик эҳтиёжлари муҳитида шаклланиш ва даврлар оша ёшарби, янгиланиб бориш қонуниятларини англаб, илмий таҳлилга тортиш қобилияти шаклланиб борди ҳамда 2011 йили номзодлик диссертациясини

муваффакиятли химоя қилди.

Маҳоратли педагог янги йўналиш – Ўзбекистон номоддий маданий меросини ўрганиш, илмий тадқиқ қилиш, жумладан, олий таълимнинг ижтимоий-гуманитар фанлари негизига номоддий маданий мероснинг табиат ва коинотга оид билим-кўнімларини сингдириш ўйлида педагог ва олима сифатида илмий, услубий жабҳаларда ўз фазилатларини намоён қилишга, бу соҳадаги пешкадамлардан бирни сифатига танилишига ёрдам берди. Шахсий ва ҳаммуаллифlik асосида ёзиб, нашр этирган шу мавзудаги ўкув кўлланма, услубий кўлланма ҳамда монография Ўзбекистон номоддий маданий меросини ёшларга ўргатиш, мазкур соҳада етук мутахассислар тайёрлаш ўйлида фаол хизмат қилиб келмоқда. Жумладан, “Номоддий маданий мерос ва фольклор ижрочилик санъати” комплекс мавзуси доирасида илмий-амалий семинарлар, конференциялар ўтказиб келади.

Ойгул Аҳмедова талабаларга истиқболли мавзулар танлашлари имкон яратиб, фольклор санъатини кенг оммага етказишида хайрли ишларни амалга оширмоқда. Бугун педагогнинг саноқсиз талабалари, издош шоғирдлари ардоклаб, биргалиқда илмий-ижодий изланишларни олиб бормоқдалар.

“Олий таълим муассасасининг энг яхши педагоги” танлови

каҳрамонимиз учун ҳақиқатан муносиб соғлом ракобат майдони бўлди. Танлов шартига мувофиқ номзод педагогнинг илмий-тадқиқот ишлари натижаларининг таълим-тарбия жараёнига жорий этилиши бўйича ютуқлари кўриб чиқилган ва педагог Ойгул Аҳмедованинг фаолияти давомидаги ишлари лойик деб топилди. Мазкур ютуқ ёш авлодга таълим-тарбия бериш ўйлида тинимсиз изланаётган ҳар қандай педагог учун катта тухфа эканлиги сир эмас. Голиба ҳозирда академик Тўра Мирзаев илмий раҳбарлигида докторлик диссертацияси учун катта тайёргарлик кўрмоқда. Билим ва изланишлар самараси ўлароқ, тадқиқотчининг барча ишлари танлаган соҳасининг назарий ривожланиши, амалиётга кенг татбик этилиши учун хизмат килмоқда.

Билим ва истеъодод, маҳорат ва ғайрат сарчашмалари қочонки ёнма-ён мужассамлашса, олий мақсад сари элтувчи машққатли йўл ҳам осон босиб ўтилади. Мана шундай мақсад сари олға интилаётган маҳоратли педагог Ойгул Аҳмедовага келгуси ишларида янада улкан зафарлар тилаб қоламиш!

**Достонбек  
РАҲМАТУЛЛАЕВ,  
Ўзбекистон давлат санъат ва  
маданият институти II босқич  
магистранти**



## A DABIY HAMKORLIK — A BADIY HAMKORLIK

Mahallamizda bir ayolni taniyman. Ko‘pincha xomush yurar edi. Hayit bayramlarda mahalladagi ayollar bolalarini yetaklab buvisinikiga ketayotganini ko‘rsa, ularning ortidan havas qilib qolardi. Yoshim ulg‘aygach, buning sababini tushunib yetdim.

Jamila opa o‘ttiz yil oldin Tojikistondan O‘zbekistonga kelin bo‘lib tushgan edi. Buni qarangki, borish-kelishli bo‘lishi kerak bo‘lgan qudachilik ayrim sabablarga ko‘ra uzilib qolgan. Jamila opaning farzandlari na buvisi-yu bobosini va na xola-yu tog‘alarini ko‘rmay katta bo‘lishdi. Jamila opaning armoniga 2018 yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga tashrifi sabab nuqta qo‘yildi.

Ikki davlat rahbarining o‘zaro do‘stona aloqalarni mustahkmalashdagi amalga oshirgan ezgu ishlari Jamila opa singari minglab ko‘ngillarga ro‘shnolik olib keldi. Bugunga qadar ikki davlat rahbarlari bir emas, bir necha bora uchrashdilar. Do‘stona aloqalar nafaqat tijorat sohasida, balki san‘at va madaniyat sohasida ham hamjihatlik kasb etdi. Shunday do‘stona uchrashuv 10-oktabr kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialida bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvga Tojikiston yozuvchilar uyushmasi raisi Akbar Abdullo, “Sharqnom” jurnali bosh muharriri shoir, tarjimon Jamshid Primov, Tojikiston Milliy kutubxonasi xodimi Xayrandishi, bolalar shoiri, yozuvchi va hajvchi Egamnazar Shohibnazarovlar tashrif buyurdilar. Uchrashuvda ikki xalq vakillarining bir-birlariga aytmoqchi bo‘lgan

gaplarining poyoni yo‘qday. Tojik xalqi she‘r va qo‘schiqlari mehmonlar ijrosida qanchalik shirali yangragan bo‘lsa institut talabalari ham bu ijroni shunchalik maromiga yetkazib kuyladilar. She’rlar, g‘azallar bora-bora baxrubayt o‘ynilariga ullanib ketdi. Bayram tadbirni O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari o‘rtasida madaniy hamkorlik, do‘stlik munosabatlarining navbatdagi namoyishi bo‘lib o‘tdi. Bizning ajdodlarimiz hisoblangan mutafakkirlar A.Navoiy, Ogahiy, Fuzuliy o‘zlariga Lutfiy va Jomiymi ustoz deb bilganlar. O‘zbekistonning eng ko‘hna go‘zal shaharlari to‘g‘risida qadimdan fors-tojik tilida shunday maqtov yangrab keladi. “Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast, Buxoro quvvati Islomi din ast”. Ur odatlari, an’analari o‘xshash, odamlarini farqlash qiyin bo‘lgan bu ikki xalqni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bir necha ming yillik davomida ularning qoniga singib ketgan. Bu kabi do‘stona aloqalar uchrashuvlari biz kabi yoshlarni yaxshilikka, bag‘rikenglikka va mehr-muhabbatga hamda o‘zaro hurmatga undaydi.

**Sadoqatxon ISMOIROVA,  
O‘zDSMI Farg‘ona  
mintaqaviy filiali “Kutubxonan  
axborot faoliyati” ta‘lim  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

бири Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиалида ҳам бўлиб ўтди. Тадбирда филиал директори П.Палуаниязов устоз ва мураббийларни касб байрами билан кутлади. Шундан сўнг институт профессори Н.Ангатбаев сўзга чиқди ва барчани байрам билан табриклаб,

келгуси ишларида муваффакиятлар тилади. Байрам тадбири институт талабаларининг устозларга ва мураббийларга багишлиб тайёрлаган концерт дастури билан давом этди.

**Аруҳан ПАҲРАТДИНОВА,  
ЎзДСМИ Нукус филиали**



## МАШАҚАТЛИ ВА ФАХРЛИ КАСБ ЭГАЛАРИ

Касблар ичида ўқитувчилик касби улуғ касблардан хисобланади. Донишмандлардан бири: “Дунёда иморатлар ичида муқаддаси мактаб бўлса, касблар ичида улуғи ўқитувчилик,” - деган эди.

Дарҳақиқат, халқимизда: “Бир ҳарф ўргатган устозга қирқ йил салом бер” - деган нақл ҳам бор. Бугунги кунда юртимизда ўқитувчilarга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ҳар йили “1 октябр — Ўқитувчи



**Сұхбатдошимиз**  
**“Чавандоз”,**  
**“Аросат”,**  
**“Алданган аёл”,**  
**“Таъзиядаги тўй”,**  
**“Кудук”,**  
**“Баракасини берсин”**  
**сингари фильмлар**  
**сценарий муаллифи,**  
**Ўзбекистон Ёзувчилар**  
**уюмаси аъзоси**  
**Гафур Шермуҳаммад.**

— Гафур ака, бизнинг қишлоқда Алихон қудук лақабли киши яшайди. Қишлоқдаги кудукнинг барини шу одам қазиган. Қўшни қишлоқда эса яна бир кудукчига одамлар “Кудук” фильмни қаҳрамонига киёс қилиб Лаллай деб лақаб қўйишибди...

— Чунки ҳар бир қишлоқнинг ўз Лаллайлари бор. Синчилаб қараган киши уларни топади. Очигини айтиб кўя колай, “Кудук”даги Лаллай образи бошдан охир каминанинг бадиий хаётоти маҳсул эмас. Вокеалар асосан ҳаётдан олинган. Қишлоғимизда шунака одам бор эди. Барваста, қотма гавдали, доим юзида ним табассум аксланиб турарди. Каттао кичикни бирдай ўзига амаки билиб, “сиз”лаб гапиради. Қишлоқнинг беминнат дастёри эди. Кимdir қудук қазмоқчи бўлса ёки уй куришга қарор килса, Лаллай амаки машҳур кетменини елкасига ташлаб етиб келарди. Одамлар ҳам шунга кўниккан эди. Лаллай буванинг асли исми Дўстмурод эди. Соддадўлворлиги боис эл унга “Лаллай” деб лақаб қўйган, ўзи ҳам шунга кўнишиб кетган эди. Беш-олти йил бурун етмишдан ошиб қазо килди, раҳматли.

Эл орасида Лаллай бува ҳақида кизик ҳангомалар юради. Бир қарашда күлгли туюлган бу ҳангомаларнинг баъзилари замирада содда, ишонувчан инсонни таҳкирлаш, шаънини ерга уриш каби аччик ҳолатлар ҳам йўқ эмас эди. Хуллас, “Кудук” қиссасига ана шу одамнинг ҳаётини асос қилиб олинган. Шу баҳонада ўзимни ўйлантирган муаммоларни ҳам айтишга ҳаракат килганиман.

— Мен “Кудук” қиссасини ҳам диккат билан ўқиб чиқдим. Қисса охирида Лаллай бир умр излаган ширин сувли қудукни шундоққина уйининг ёнидан топади. Қисса Лаллайнинг марҳум ўғли қабри бошида ўтириб айтган қўйидаги сўзлари билан тугайди: “Мен умр бўйи шу сувни ахтариб яшаган эдим. Ниҳоят уни топдим. Энди бўёғига кўнглим хотиржам...” Ана шу таъсирчан лавҳа негадир фильмдан тушиб қолган.

— Бу эпизод сценарийга киритилиб, суратга ҳам олинган эди. Фильм тайёр бўлгач, бадиий кенгашда “картина Лаллайнинг қудуқка кириб кетиши билан тугалланса яхши бўларди. Томошабинга ҳам мuloҳаза килиш учун имконият қолдириш керак”,

**Докторанты Государственного института искусств и культуры во главе с научно – исследовательским отделом ВУЗа в период с 22 по 26 октября 2018 года приняли активное участие в мероприятии, проводимом Узбекистаном - Международной неделе инноваций «Inno Week 2018». Организаторами данного мероприятия явились Министерство инновационного развития Республики Узбекистан и Госкоминвестииций и ТПП Узбекистана.**

## МЕЖДУНАРОДНАЯ НЕДЕЛЯ ИННОВАЦИЙ «INNO WEEK 2018» В ТАШКЕНТЕ

Цель Международной недели инноваций — демонстрация новых технологий, разработанных как в Узбекистане, так и за рубежом, обмен технологиями, модернизация старых методик, создание возможности общения потенциальных инвесторов с правительственные и деловыми кругами Узбекистана.

— Ёзувчи ва шоирлар асосан илҳомга таяниб, эмин-эркин ижод қилишади. Драматург эса театр ёки кинонинг ўзига хос ҳусусиятлари билан ҳисоблашишга мажбур...

— Назм ва насрнинг ҳам ўзига яраша талаблари бор, яхши асар ёзиш учун факат илҳомнинг ўзи камлик қиласи. Лекин драматургия нисбатан инжиқ жанр эканлиги рост. Бу жанрда битилган асарни юзага чиқариш учун кўп меҳнат ва вакт талаб қилинади. Бунинг устига, ҳаммаси муаллифнинг ўзигагина боғлиқ эмас. Аксарият холларда минг машҳоҳлар билан ёзилган асар саҳна ёки экранга йўл тополмай, қолиб кетади. Исталган драматургдан сўраб кўрининг, галадонида нечта пьеса ёки сценарий чанг босиб ётганини айтиб беради. Шунинг учун бўлса керак, ёзувчи ва шоирларимиз орасида драматургия билан жиддий шугуланаётганлари бармоқ билан санарли.

— Шу ўринда адабиётнинг кино санъатидаги ўрни ва аҳамияти ҳақида ҳам тўхвалиб ўтсангиз.

— Ҳеч қачон кинони адабиётсиз тасаввур килиб бўлмайди. Дунёда ҳам, ўзимизда ҳам энг сара фильмлар бадиий асарлар асосида яратилган, десам фикримга қўшилсангиз керак. Кинонинг асосини адабиёт ташкил қиласи. Адабиётсиз кино жудаям гарип, қашшоқ бўлиб қолади. Зотан, чинакам бадиий асарларда тўлақонли инсон сиймоси тасвирланади. Бундай асарлар мувффакият билан экранга кўчирилса, кино санъатининг дурдонасига айланади. Баъзан “кино бошқа, адабиёт бошқа” деган асосиз дайволовар ҳам кулокка чалиниб қолади. Бу — айрим киночиларнинг адабиётни, айниқса миллий адабиётимизни яхши билмаслигини хаспушлашга уринишидан бошқа нарса эмас деб ҳисоблайман. Ўзини хурмат килган драматург ҳеч қачон адабиётнинг кино санъатига таъсирини инкор этмайди.

— Бўлажак драматурглар кўпроқ нишаларга эътибор бериши керак деб ўйлайсиз?

— Менимча, улар кўп ўқиши, ҳаётни чуқурроқ ўрганишга ҳаракат қилиши керак. Чунки кино ёки театр сохталини хушламайди. Факатгина драматургия қоидаларини ўзлаштириш билан иш битмайди. Мен кино талабларига мослаб ёзилган, лекин ҳаётйликдан йироқ, мужмал сценарийлар асосида ишланган фильмлар айтарли мувффакият қозонмаганига кўп бор гувоҳ бўлганман.

Драматург бўламан деган мардум “кора меҳнат”дан кочмаслиги, ҳар хил ўринли-ўринизсиз танқиду маломатларга ҳам чидаши лозим бўлади. Баъзан бадиий кенгашда шунаканги пўстагингизни қоқишадики, асар ёзганларнинг пушаймон бўлиб кетасиз. Колаверса, драматург ўзига ҳамфир режисёр топиб, у билан бамаслаҳат ишласа, яхши натижаларга эришиши мумкин. “Ёлғиз отнинг чангни чиқмас...” деган мақол айнан шу соҳага мос келади.

**“Сахна ва экран санъати драматургияси” таълим йўналиши 4-босқич талабаси Шавкат ДЎСТМУҲАММАД сұхбатлаши.**



## ДРАМАТУРГ ҲАЁТНИЙ ЯХШИ БИЛИШИ КЕРАК

деган фикр айтилди. Бу гап бизга ҳам жўяли туюлди. Режиссёр билан маслаҳатлашиб, ана шу лавханинг баҳридан ўтишга қарор килдик.

— Чиндан ҳам “Кудук” фильмни экранларга чиққач, анча қизгин муҳокамаларга сабаб бўлди. Баъзилар фильм билан қиссани ўзаро тақкослаб, кайси бири яхшироқ, деган саволга жавоб топишга ҳаракат қилишибди. Ҳатто, “режиссёр бадиий асарни экранга тўлақонли кўчира олмаган” деган фикрлар ҳам айтилди. Сиз асар муаллифи сифатида бу ҳусусда нима дея оласиз?

— Шунаقا мuloҳазалар бўлғанлиги рост. Мен нима дейишим мумкин... Анча йиллар кино соҳасида ишлаганим учун бу санъат турининг ўзига хос талаблари, ҳусусиятларидан озми-кўпми хабардорман. Сўз - адабиётнинг ифода воситаси хисобланса, кино асосан тасвир, ҳаракатга суняди. Яъни бу санъат тури серсўзликни уччалик “ҳазм киломайди”. Шунинг учун биронта бадиий асар кино тилига кўчганда жузъий ўзгаришларга учраши, қаҳрамонларнинг ёки муаллифнинг унчамунча ақлии гапларидан воз кечилиши табиий ҳол. Махоратли режиссёр уларни тасвир катига сингдириб юборади. Бунинг устига, кино драматургиясининг анчагина мурakkab конуниятлари ҳам бор...

Режиссёр Мансур Абдухоликов билан илгари ҳам бир нечта картиналарда бирга ишлаб, бир-биримизнинг тилимизни яхши тушуниб колган эдик. “Кудук”нинг режиссёрлик сценарийсини ёзиш жараёнда ҳам ўзаро фикрлашиб, асардаги кўп нарсаларни “кино тили”га ўтиришга ҳаракат килди. Ўйлашимча, бу уринишимиз ёмон чиқмади.

— Фильм бир қатор ҳалқаро кинофестивалларда ҳам иштирок этди...

— Тўғри. Режиссёр билан актёrlар ана шу анжуманларда иштирок этиб келишибди. Фильм хорижлик мутахассис ва томошабинлар томонидан ҳам ижобий баҳоланди. Ҳалигача баъзи кинофестивалларда намойиш килиниб турибида.

Кишини курсанд қиладигани, кейинги йилларда кино санъатимизда бир нечта истеъододли ижодкорлар етишиб чиқди. Улар ишлаттган соф миллий руҳдаги фильмлар томошабинини топиш баробарида, дунё бўйича катта обрўга эга бўлган

Тематика мероприятия посвящена внедрению инноваций в социальной сфере, промышленности, государственном управлении, финансово-экономическому сектору и научной сфере.

В течение всей недели «Inno Week 2018» были организованы Международная ярмарка инноваций и Международный инновационный форум.

«Международный инновационный и инвестиционный форум» - дискуссионная площадка между инвесторами и инновационными разработчиками. Экспертное сообщество, представители официальных и деловых кругов Узбекистана и зарубежных государств обсудили наиболее актуальные вопросы, остро стоящие на повестке дня современного инновационного развития Республики Узбекистан.

«Международная инновационная ярмарка» проводилась с активным участием местных и зарубежных инновационных и научных центров, инвестиционных фондов, технологических агентств, технопарков и бизнес-инкубаторов.

Работа велась в формате тематических сессий международного инновационно - инвестиционного форума. В процессе дискуссий участниками были обсуждены многие актуальные проблемы и намечены новые формы

сотрудничества, поиски и решения задач, поставленных перед форумом.

**Главной тематикой форума и ярмарки явились:**

- инновации в аграрной сфере;
- инновации в социальной сфере;
- инновации в реальном секторе экономики;
- инновации в банковско – финансовом секторе;
- инновации в государственном управлении.

В работе Международной недели инноваций «Inno Week 2018» принимали участие видные ученые, специалисты, руководители крупных компаний таких стран, как США, Англия, Италия, Израиль, Германия, Япония, Австрия, Нидерланды и др.

Нет сомнений, что проведение таких мероприятий будет способствовать выявлению одаренных, талантливых, интеллектуально развитых специалистов, которые в полной мере смогут реализовать способности на благо своей страны и своего народа.

**Шахноз САБИРОВА,  
Станислав МАРКОВ,  
Акбар АТАМУХАМЕДОВ,  
докторанты ГИИК Уз**

Бугун юртимизда истеъдодли, билимли, ўз танлаган йўли ила қўплаб ютуқларга эришаётган истиқболли ёшлар сони тобора ортиб бормоқда. Юртбошимиз ҳам айнан она Ватанимиз учун фидокор ёшларни, ҳар жиҳатдан кучли йигит-қизларни тарбиялашни мақсад қилиб қўйганланлиги ва бу мақсадларнинг амалдаги ёрқин ифодаси қўнгилларимизни яиратади. Айниқса, Президентимиз ташабbusi билан Республика мизда санъат ва маданият соҳаларига жиддий эътибор қаратилаётган бир вақтда маҳоратли ёш кадрларнинг етишиб келиши қўзланган маррага етганилигидан далолатдир. Қўйидаги қаҳрамонларимиз ҳам ўз интилишлари, билими ва истеъоди ила олий таълим муассасасига давлат гранти асосида ўқишга кирган баҳтли ўзбек ёшларидандир.

## ЁШЛАР ИСТИҚБОЛИ – КЕЛАЖАК ПОЙДЕВОРИ

Мен Кенжава



Чарос 1994 йили Тошкент вилояти Чирчик шаҳрида таваллуд топганман. Мактаб йилларида ёк сухандонликка, нутқ маданиятига меҳр кўйиганини муроҷа иштироким ва илмий-ижодий ютуқларим, нафис санъат лицейида таҳсил олдим. Қизиқишиларим мени Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти томон етаклади ва 2014 йили институт талабаси бўлдим. Аъло баҳоларим, жамоат ишларидаги иштироким ва илмий-ижодий ютуқларим,

**ONAJON!**

*Mehringiz taftida isinar jonim,  
Oftob hissi kelar sizdan, Onajon!  
Siz-la baxtim totli, go'zal har onim,  
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!*

*Duodan qolmaydi xush zaboningiz,  
Uyim jannat omon bo'lsa joningiz,  
Halovat maskani erur yoningiz,  
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!*

*Siz mening munisim, beozorginam,  
Olisda bo'lsam gar, intizorginam,  
Mening kamtarginam, xokisorginam,  
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!*

*Farzanddan ortiqroq neni suydingiz?!  
Bolam deb ardoqlab,  
men deb kuydingiz,  
Oq sut ila qalbga iymon quydingiz,  
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!*

*Firdavsga yo'l erur onalar xoki,  
Xizmatingiz qilay tirikman toki,  
Yuzingiz hurlardek yorug', hattoki,  
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!*

*Yelkamda ko'tarib Hajga eltaxin,  
Solih bo'lib ulug' Tojga eltaxin,  
Ruhim allalagan, mayin yeldayin,  
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!*

**Niyatullo MELIQULOV,**  
“San’atda animatsiyaviy va  
multimediyaviy loyihalash” ta’lim  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Muassis:**  
O‘zbekiston davlat san’at va  
madaniyat instituti

Bosh muharrir:  
Nafisa RAIMQULOVA

қолаверса, тажрибали устозларим кўмаги билан 2017 йили Навоий номидаги давлат стипендияси соҳиби бўлдим ҳамда мана шу имтиёз асосида институтнинг магистратура бўлимига имтиҳонларсиз ўқишига қабул килиндим. Давлат стипендиясини олишимда барча имтиҳонлар адолатли тарзда ташкил қилинганлиги мени қувонтириб юборди. Айни фурсатда чукур билими ва ўз кучи билан кенг майдонга чиқадиган ёшлар учун омад эшиклари очилганлигини англадим. Бакалавр босқичида “Театршунослик” таълим йўналишида таҳсил олиб, “Замонавий ўзбек театр санъатида болалар драматургияси” мавзусида малакавий диплом иши

ёздим ва аъло баҳоларга топширдим. Бунда устозим маҳоратли педагог, санъатшунослик фанлари номзоди, доцент Омонулла Ризаев менга ҳар томонлама кўмак бердилар. Эндиликда юқоридаги долзарб мавзу доирасида янада кенгрок илмий тадқиқот олиб бориб, соҳадаги мавжуд камчиликларни бартараф этиш борасида ўз таклифларимни бермоқчиман. Бугун мен Ўзбекистоннинг баҳти, омадли ёшлариданман. Бизнинг юқори даражада билим олишимиз, ўз танлаган соҳамизда етарли шарт-шароитларда ўқиши имконини берган хукуматимиз, қолаверса, санъат ва маданиятта алоҳида эътибор қаратадиган муҳтарам юртбошимизга чексиз миннатдорчилигимни изҳор этаман! Насиб килса, илмий изланишларим йўлида аъло натижалар билан етук ва малакали кадр бўлишга сўз бераман!

Мен Нарзуллаев Одилжон 1999 йили Самарқанд вилояти Булунғур туманида туғилганман. Болалигимдан кино санъатига бўлган қизиқишим ўзгача эди. Бобом ва отам билан доим жаҳон ва ўзбек кинокартиналарини кўриб, таҳлил қилиб борардик. Мана шу қизиқишиларим мени Самарқанд санъат коллежига чорлади.



## HAYOT YO'LLARIDA TO'PLANGAN HAYOT...

- ❖ Ertaga bizni kim bo'lishimiz, bugungi bosgan qadamimizga bog'liq.
- ❖ Taqdır sinovlari bir xil bo'lishi mumkin lekin xulosalar har xil bo'ladi.
- ❖ Xato faqat kech anglanadi. Agar u o'z vaqtida anglansa, u xato bo'lmaydi.
- ❖ Qiyinchiliklar sizni tanlamasligi uchun siz qiyinchiliklarni tanlashingiz zarur.
- ❖ Gohida yo'qotganlarining topganidan, topganining esa yo'qotganlarining ustidan hukmronlik qiladi.
- ❖ Ko'p narsaga ko'z yumib, ularni unutmasang hayotda ko'p narsaga erisha olmaysan.
- ❖ Insoniyat ahliga yaxshilikdan ko'ra yomonlik ko'proq va tezroq ko'rindi.
- ❖ Kelajak maqsadlar asosida tanlangan yo'lda bog'liq.
- ❖ O'tmishing go'zal bo'lgani bilan, kelajaging go'zal bo'lmasa barchasi bekor.
- ❖ Vaqt uchun o'tgani, inson uchun

kutgani ma'qul.

- ❖ Omad — kezi kelganda aqlning ustidan hukmronlik qiladi.
- ❖ Barcha kurashadigan haqiqat aslida har kimning haqiqatidir.
- ❖ Yo'qotilgan har bir soniya, ertaga topilmas vaqtga aylanadi.
- ❖ Minglab qilingan ishlar omadni, birgina o'yalamay qilingan ishlar esa ko'pgina omadsizliklarni boshlab keladi.
- ❖ Harakat - o'zingiz istagan orzulariga ergashtiruvchi ichki intuatsion kuchdir.
- ❖ Tillar so'zlagan yolg'ondan, qalbag'a ko'milgan haqiqat yaxshiroqdir.
- ❖ O'zingni hech kimga kerakmas deb bilma, atrofingga qarab xulosa qil.

**Doston HAMIDOV,**  
“Ijtimoiy-madaniy faoliyat” ta’lim  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**QOLMADI!**

Talabalar yotoqxonasi. Oybek xursand bo'lib, qo'lidagi bir qancha shokoladlarni bittalab sanab idishga joyladi. U idish ustiga bir parcha qog'oz yopishtirib, “17 ta qoldi”, deb yozdi va idishni muzlatgichga qo'yib, chiqib ketdi. Birozdan so'ng, Usmon oshxonaga shoshib kirib, muzlatgichni ochdi va ko'zi shokolad solingan idishga tushdi. U idish ustidagi yozuvni ko'rib kuldii. O'ylab turib, idishdan qo'lini to'ldirib shokolad oldi-da, qog'ozdagii “17 ta qoldi”ning tagiga “endi 10 ta qoldi” deb yozib qo'ydi.

Ulardan keyin yana bir nechta odam



oshxonaga kirib-chiqib ketdi. Oybek kelib muzlatgichni ochganida, idish ustida “Qolmadi!” degan yozuv turardi!..

**Orzugul MUZROBOVA,**  
“Sahna va ekran san'ati  
dramaturgiyasi” ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi

Коллежни аъло баҳоларга тамомлаб, 2018 йили Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтига 167 балл билан давлат гранти асосида “Кино, телевидение ва радио режиссёрлиги” таълим йўналишига ўқишига кирдим. Барча синов жараёнлари онлайн тарзда ёритиб борилди. Имтиҳон жараёнлари адолатли ракобат, билимларни синаш майдони бўлди, дейишим мумкин. Мен танлаган йўналишда 130 нафарabituriyent орасидан 18 таси талаба бўлди. Институтта ўқишига кирганимни эшитган дадам кўзларига ёш олдилар. Истагим, кино режиссурасини мукаммал ўрганиб, ўзбек фильмларини дунё майдонига олиб чиқиш, Ватанимизга содик фарзанд бўлишидир!

Талаба бўлиш, ўзим орзу килган институтда давлат гранти асосида ўқишига имкон яратган шаффоффик сиёсатини олиб бораётган, ҳар жабхада коррупцияга қарши курашадиган жонкуяр Юртбошимизга мингдан минг раҳмат. Уларнинг саъи-харакатлари билан интилувчан, истиқболли ёшларнинг билим ва истеъоди янада чархланиб, Ўзбекистон номи жаҳонга довруғ сочмоқда!

**Ўзбекистон давлат санъат ва  
маданият институти магистранти  
Достонбек РАҲМАТУЛЛАЕВ**  
сұхбатлашиди.

\* \* \*

*“Uzlatga chekinmoq istadim mudom...”  
Dilan Tomas*

*Yurakda qizg‘aldoq gullagan sahar,  
Muhabbat shavqiga to‘lganda nigoh.  
Qushlarning ovozi tinmagan mahal,  
Ko‘nglimning tubiga chekindim nogoh...  
Quyoshga talpinar,  
Nurga intilar,  
Daraxtlar barq urar gullagan sari.  
Hayot qo‘srig‘ini kuylab basma-bas,  
Bog‘larda to‘zg‘iydi xazonlar bari...  
Shamolni sog‘inar,  
Qo‘msaydi ko‘kni,  
Iztirob ichida to‘lg‘ongan bemor.  
Orzuni orzulab turgan ko‘zlar  
Derazadan tushgan yog‘duga xumor...  
Yillarning ko‘nglini ololmagandek,  
Chorasizlik aro topmayin chora.  
So‘ngisiz umid ila pichirlab deydi:  
Hazrati Xizrni ko‘rsaydim zora...  
Shivirlab oyatlar aytadi borliq,  
Tiriklik ko‘ksidan eshitilar sas.  
O‘zimdan o‘zimni izlab jununvor,  
Bu olamda men ham bir xasdirmam, xas.  
Yo‘qotib qo‘ygandek muvozanatni,  
Qismat qo‘llarida chayqalaman, o,  
Umidsiz umidni chorlayveradi  
Tole quflarini ochmagan Dunyo!  
Bemajol suzgandek Nuh kemasida,  
Behudud ummonda qolgandek tanho.  
Chekindim ko‘nglimning tubiga nogoh,  
Dilimda ismingni takrorlab, Xudo!*

**Mo‘tabar BOYMATOVA,**  
“Sahna va ekran san’ati  
dramaturgiyasi” ta’lim yo‘nalishi  
1-bosqich talabasi

**Tahrir hay’ati:**  
Go’zal XOLIQULOVA  
Hamadan ISMOILOV  
Antonino KOSHELEVA  
Rashid USNATOV  
Mas’ul kotib:  
Kurshida FAYZULLAYEVA

**Muxbirlar klubi sardorlari:**  
Muhammadi BOZOIROVA  
Shavkat DO‘STMUHAMMAD

**Tahririyat manzili:** 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.  
**Telefon:** (0-371) 230-28-13.  
[www.dsml.uz](http://www.dsml.uz); [dsml\\_info@olam.uz](mailto:dsml_info@olam.uz)

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz –1.

**Sahifalovchi:**  
Dilmurod DO‘STBEKOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.  
O‘lchami – A3, hajmi – 2 bosma taboq.  
Nusxasi – 1250 dona. Narxi kelishilgan narxa.  
Chop etilishi 31.10.2018 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqamini bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.